



## YANGI O'ZBEKISTONDA RIVOJLANAYOTGAN OLIY TA'LIM HAMDA KENG KO'LAMLI ISLOHOTLARDA TYUTORLARNING O'RNI

**Avliyoqulov Bekmirza Bektemirovich**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti tyutori

<https://www.doi.org/10.37547/ejar-v03-i02-p3-83>

### ARTICLE INFO

Received: 06<sup>th</sup> February 2023

Accepted: 15<sup>th</sup> February 2023

Online: 16<sup>th</sup> February 2023

### KEY WORDS

*Tyutor, oliy ta'lim, ta'lim, universitet.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada, so'nggi yillarda ta'lim sohasida O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilingan. Jumladan, OTM larda yangidan tuzilgan "tyutor"likning o'ziga xos jihatlari ochib berilgan. Va amaldagi mavjud muammolar talqin etilgan.*

Bugungi kunda O'zbekistonda ta'lim sohasida qilinayotgan o'zgarishlarga va islohotlarga nazar tashlar ekanmiz, ulardan naqadar katta ijobiy natijalar ko'zlanganligini anglash qiyin emas. Ushbu sohaning davlat siyosati darajasida ekanligining isboti o'laroq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yilga "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" yili deb nom berilganligining o'zi qilinayotgan va qilinishi lozim bo'lgan ishlarning ahamiyati naqadar katta ekanligini ko'rsatib turibdi. Ayniqsa, oliy ta'lim sohasidagi so'ngi yangiliklar, o'qitish tizimiga Yevropa va boshqa rivojlangan mamlakatlar tajribalarining olib kirilayotganligi va shuning asnosida yurtimizdagi juda ko'plab oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berilayotganligining o'zigina ushbu sohada islohotlarning qanchalik keng ko'lamda olib borilayotganligidan darak beradi. Xususan, Toshkent davlat yuridik universitetida ham so'nggi yillarda bu sohada bir qancha amaliy ishlar qilinayotganligini ko'rishimiz mumkin. Ushbu universitetda ta'limning sifatini nazorat qilish, o'quv jarayonlarini belgilangan asoslarga ko'ra tashkil etish vazifalarini amalga oshiruvchi Toshkent davlat yuridik universiteti Kuzatuv kengashi faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu kengash bayoni bilan 2022-2026-yillarda Toshkent davlat yuridik universitetini strategik rivojlantirish dasturi tasdiqlangandi[2]. Unda universitet boshqaruv tizimini zamonaviy standartlar bo'yicha transformatsiya qilish yo'nalishida ilmiy-tadqiqot sifati masalalarini kollegial tartibda ko'rib chiqish mexanizmini, ya'ni universitet boshqaruvida akademik halollik va tadqiqot etikasining institutsional asoslarini shakllantirish Akademik halollik kengashi va Tadqiqot etikasi kengashi tashkil etilishi belgilab qo'yildi. Ushbu hujjat bilan Akademik halollik kengashi va Tadqiqot etikasi kengashi o'z faoliyatini 2022-yil sentabr oyidan boshlab Toshkent davlat yuridik universitetining Akademik halollik va tadqiqot etikasi kodeksi asosida amalga oshirmoqda[3]. Ushbu ishlab chiqilgan tizim universitetning ilmiy va akademik rivojlanishiga, professor-o'qituvchilarning olib borayotgan ilmiy tadqiqotlari samarali natijalarga erishishiga va albatta talaba hamda magistrning o'zlashtirgan bilimlarini yakuniy nazorat imtixonlari orqali baholash jarayonlariga bevosita ta'sir etgan holda bitiruvchi kurs talabalarining bitiruv malakaviy ishlari va magistr, doktorantlarning



dessertatsiyalarining haqqoniyligini aniqlashda o'zni katta bo'layapdi. Xususan, universitet 500 mingdan ziyod ilmiy adabiyotlarni o'z ichiga olgan maxsus elektron antiplagiat dasturini xarid qilgan bo'lib, ushbu dastur orqali yuqorida keltirib o'tilgan ilmiy jarayonlarga bog'liq plagiatlarni aniqlab, akademik halollik talablariga rioya qilinishini ta'minlamoqda hamda ushbu jarayonlar universitetning Akademik halollik va tadqiqot etikasi kodeksi bilan tartibga solinmoqda. Albatta, ushbu ko'zlangan maqsadlarga erishishda birgina tizimni joriy qilishning va xalqaro tajribaning tadbiq qilinishining o'zi yetarli bo'lmasdan, kadrlar siyosatida ham o'zgarishlar qilib, yangi samarali shtat birliklari hamda lavozimlarni joriy qilish ham talab etiladi. Masalan, Toshkent davlat yuridik universitetida yurtimiz oliy ta'lim muassasalari orasida birinchilardan bo'lib tyutorlik instituti joriy etilgan bo'lib, mana ikki yildirki ushbu institut faoliyati samarali amalga oshirilib kelinmoqda. Universitetda faoliyat yuritayotgan jami 20ga yaqin tyutorlarning deyarli 70 foizidan oshiqrog'i magistr darajasiga ega bo'lib, ular har qanday ilmiy hamda ma'rifiy masalalarda talabalarga ko'mak berib kelmoqdalar. Toshkent davlat yuridik universitetining "Toshkent davlat yuridik universitetida tyutorlik faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizomda keltirilganidek, "**Tyutor** - bu universitetda faoliyat yuritadigan yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan xodim bo'lib, o'ziga biriktirilgan guruh talabalarining ta'lim olishlarida, shuningdek darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishlarida ko'maklashadi, ularni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, beshta muhim tashabbus doirasida tashkil etilgan to'garak va klublarga jalb etish, ta'lim olish jarayonida yuzaga keladigan barcha masala va muammolarni o'rnatilgan tartibda bartaraf etishga qaratilgan faoliyatni olib boradi".

Ushbu nizom va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq universitet tyutorlari talabalarining shaxsiy rivojlanishini yo'naltirib, ularning universitet, respublika hamda xalqaro tanlovlardagi munosib ishtiroki borasidagi faoliyatiga ko'maklashib, shuningdek, ularni kasbga yo'naltirish borasida ham o'zlarining qo'llab-quvvatlashlari bilan yordam berib kelmoqda. Toshkent davlat yuridik universiteti tyutori sifatida o'z faoliyatim haqida to'xtaladigan bo'lsam, ushbu institut bugungi kunda bir qancha yo'nalishlar bo'yicha samarali natijalarga erishayotganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi:

**Birinchidan, ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy-tarbiya sohasida.** Ushbu soha bo'yicha tyutorlar o'zlariga biriktirilgan har bir talaba bilan tizimli ishlash amaliyoti yo'lga qo'yilgan bo'lib, talabalarining universitetdagi yurish-turishlari, ularning universitet ijtimoiy hayotidagi ishtiroki, ya'ni turli fan to'garaklari va klublarga a'zolik darajalarini oshirishga, fanlardan o'zlashtirish ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan samarali ishlarni tashkil qilish bilan shug'ullanishmoqda. Xususan, shaxsan menga biriktirilgan Ommaviy huquq fakulteti 3-kurs jami 325 nafar talabalarining mazkur o'quv yilida o'qishdan bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etishga qaratilgan sport va turli intellektual yo'nalishlarda 18 ta klubga 176 nafar hamda 5 ta sport to'garagiga 53 nafar talaba a'zo qilingan bo'lib, ular faoliyati samarali yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari, boshqa viloyatlardan kelib universitetda o'qiyotgan talabalarining ijara xonadonlariga tashrif buyurish va ularning xolidan xabar olish ishlari muntazam tashkil qilingan bo'lib, ayniqsa yaqinda Yurtimizga kirib kelgan anomal sovuq ob-havo vaqtida Toshkent shahrida qolgan 18 nafar talabalarining sharoitlari muntazam nazorat qilib borildi. Ushbu yo'nalishda tyutorlar nafaqat talabalarining ijtimoiy faolliklarini oshirishga ko'maklashadilar, qolaversa universitetda talabalar tomonidan Ichki tartib-qoidalar va Odob-



axloq kodeksiga og'ishmay amal qilishlarini, universitet hududida professor-o'qituvchilar hamda talabalar bilan do'stona munosabatda bo'lishlarini ham ta'minlashda eng asosiy rolni o'ynashmoqda. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda, qolaversa, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha sohalaridagi islohotlar, xorijda ro'y berayotgan voqealar hamda boshqa zarur axborotlar bilan tezkor va muntazam ravishda xabardor etib borish maqsadida men ham talabalarimga xaftada bir marotaba "Tyutorlik soatlari" mashg'ulotlari o'tkazib boraman. Bugungi kunda mazkur tyutorlik soatlari 20 dan ortiq bo'lib, ularda talabalar bilan davra suhbatlari tashkil qilinib, yurtimizda va jahonda yuz berayotgan o'zgarishlar va amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risida suhbatlashilgan.

**Ikkinchidan, o'quv va o'quv-uslubiy sohada.** 2022/2023 o'quv yili davomida talabalarning darslarga qatnashishlari kunlik davomatini yuritib borish hamda talabalar tomonidan sababsiz qoldirilgan dars mashg'ulotlarini nazorat qilish yuzasidan har bitta talaba bilan tushuntirish ishlari olib borilmoqda. Yaqinda bo'lib o'tgan semestr bo'yicha yakuniy nazoratlarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 359-son qarorining 44-bandiga muvofiq har bir fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan 20 nafar talaba tegishli fanlardan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmadi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblandi[4]. Yakuniy nazorat turiga kiritilmagan yoki kirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha qoniqarsiz baho olgan talaba akademik qarzdor hisoblanadi. Ushbu sohada Toshkent davlat yuridik universitetida ajoyib tizim yo'lga qo'yilgan bo'lib, ushbu tizim mutlaqo elektron tarzda olib boriladi. Xususan, talabalarning darslardagi davomatini nazorat qilish "Elektron universitet platformasi: digital.tsul.uz" orqali elektron tarzda olib borilib, bunda talabaning kunlik darslarda ishtirok etish holatlari online tarzda fakultet tyutorlari tomonidan nazorat qilib boriladi. Bundan tashqari o'zlashtirishda qiynalayotgan yoki oilaviy muommolar sabab darslarni qoldirayotgan talabalar bilan yakka tarzda shug'ullanib, ularning ota-onalari bilan hamkorlikda ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

**Uchinchidan, ilm-fan, innovatsiya va tadqiqotlar sohasida.** Ushbu sohada tyutorlar o'zlariga biriktirilgan har bir iqtidorli talaba bilan individual tarzda shug'ullanib, ularga turli xil tanlov va konferensiyalar uchun ilmiy maqolalar tayyorlashda maslahat hamda ularni nashr etishga ko'mak berib kelmoqda. Menga biriktirilgan Ommaviy huquq fakulteti umumiy 325 nafar 3-kurs talabalaridan 189 nafar iste'dodli va iqtidorli talabalarni innovatsion startaplarga va ularni ijodiy faolliklarga yo'naltirish yuzasidan kafedralar huzurida ochilgan ilmiy maktab va ilmiy to'garaklarga jalb etildi. Bular jumlasiga konstitutsiyaviy huquq kafedrasining professori I.Bekov, R.Hakimov va E.Qodirovlarning ilmiy maktablari hamda ushbu kafedraning Public Law Club ilmiy to'garagi, davlat va huquq nazariyasi kafedrasining professori M.Ahmedshayeva ilmiy maktabi, shu kafedraning Yurist, Yurisprudensiya va Akademik ilmiy to'garaklarini sanab o'tishimiz mumkin. Bundan tashqari talabalarning xalqaro grantlar va loyihalarda qatnashishlariga ko'mak berib va rag'batlantirib kelinmoqdaki, ushbu harakatlar natijasida ko'plab talabalar ushbu sohada muvaffaqiyatga erishmoqdalar. Xususan, Ommaviy huquq fakulteti 3-kurs talabasi **Raxmonov Tolib Turg'un o'g'li 2022/2023 o'quv yili uchun Navoiy nomli davlat stipendiyasi** sohibi bo'lganligining



o'zi ham ushbu sohada amalga oshirayotgan ishlarning samarasi nechog'lik ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tish lozimki, bugungi zamonaviy oliy ta'limni, talabalar bilan ishlash va ularning muommolarini universitet rahbariyatiga olib chiqish hamda hal qilishda tyutorlik instituti katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Zero, rivojlangan davlatlarning oliy ta'lim muassasalari va top reytinglarga kiruvchi ko'plab universitetlarda bu tizim allaqachon yo'lga qo'yilgan bo'lib, universitetdagi jarayonlarni tizimlashtirish va samarali bo'lishini ta'minlab kelmoqda desak xato bo'lmaydi. Xususan, talabalarning ijtimoiy va darsdan tashqari o'quv masalalari bilan ularga dars beruvchi professor-o'qituvchilarning o'rniga, xuddi shu darajadagi maxsus pedagog xodimning jalb qilinishi albatta ta'lim sifatini yuqori darajada saqlab qolishga va yanada rivojlanishiga yordam beradi. Nega deganda, talabalarga dars o'tuvchi professor-o'qituvchi ham talaba bilan darsdan tashqari masalalar bilan shug'ullanishi, ularni nazorat qilishga ketadigan vaqtini darsga tayyorgarlik qilishga, o'z ustida ishlashga va ilm-fanda yangilik qilishga sarflashi yanada foydali bo'ladi.

## References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Parlamentga murojatnomasi". 2022-yil 20-dekabr. Toshkent.
2. Toshkent davlat yuridik universiteti kengashining 1-son majlis bayonnomasi. 2022-yil 31-avgust, 1-son. Toshkent.
3. Toshkent davlat yuridik universiteti kengashining 1-son majlis bayonnomasi. 2022-yil 31-avgust, 1-son. Toshkent.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 359-son qarori, 44-bandi.
5. Normuratov, A. (2022). PROBLEMS AND PROSPECTS OF THE DEVELOPMENT OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM IN MODERN SOCIETY. Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot, 1(28), 465-468.
6. Normuratov, A. (2022). Ma'muriy yustitsiya tushunchasi va uning jamiyatdagi ahamiyati. Jamiyat Va Innovatsiyalar, 3(11/S), 214-218. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss11/S-pp214-218>.
7. Dilboboev, N. (2022). Issues for Enforcement of Decisions of the International Investment Arbitration on Interim Measures. Available at SSRN 4299453.
8. Shavkatugli, D. N. (2022). Conciliation as a Means of Adr Vs Arbitration and Mediation. European Multidisciplinary Journal of Modern Science, 6, 430-436.
9. Зоилбоев, Ж. (2021). ADMINISTRATIVE REFORMS OF EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN. ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, (SPECIAL 1).
10. Javlon, B. (2022). ACTUAL PROBLEMS IN THE ACTIVITIES OF THE PROSECUTOR'S OFFICE AND WAYS TO SOLVE THEM IN THE CONDITIONS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. World Bulletin of Management and Law, 13, 127-129.
11. Жураев, А. (2022). ДАВЛАТ ФУҚАРОЛИК ХИЗМАТИДА РАҒБАТЛАНТИРИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 1(7), 220-226.



12. Juraev, A. (2022). THE CONCEPT OF ENCOURAGING CIVIL SERVANTS: THEORETICAL AND LEGAL ANALYSIS. Eurasian Journal of Academic Research, 2(13), 669-676.

13. Умаров, Б. З. (2021). МАЪМУРИЙ ИШЛАРНИНГ СУДГА ТААЛУҚЛИЛИГИНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ. ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ, (SPECIAL 1).